

**HUDUDLARNING IJTIMOYIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA UZLUKSIZ
TA'LIM VA KADRLAR TAYYORLASH MUAMMOLARI****Raximova Nargiza Abduxalilovna****Raxmatova Ozoda Elmurod qizi**

Termiz davlat pedagogika instituti talabalari

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada kun sayin rivojlanib borayotgan go'zal O'zbekistonimizda uzluksiz ta'lim tizimi va kadrlar tayyorlash jarayonining ahamiyati hamda o'rni yoritilgan. Bu tushunchalar soniya sayin o'zgarayotgan dunyoda muhim bo'lib, zamonaviy texnologiyalar, mehnat bozori talablarining o'zgarishi va shaxsiy rivojlanish ehtiyojlarini hisobga oladi.

KALIT SO'ZLAR

Uzluksiz ta'lim, hududiy rivojlanish, innovatsion ta'lim, professionalizm, akmeologiya, kadrlar tayyorlash, texnologik modernizatsiya

Har bir hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi globallashtirish, ilmiy-texnik taraqqiyot va raqamli iqtisodiyot zamonida zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega kadrlar bilan bevosita bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan, Inson kapitalini rivojlantirish, „ Yangi O'zbekiston 2030 ” strategiyalari uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirishni milliy rivojlanishning ustuvor maqsadlaridan biri sifatida belgilab bermoqda. Hududiy rivojlanishda uzluksiz ta'lim tizimi nafaqat ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi, balki mehnat bozorida talab va taklif muvozanatini yaratadi, innovatsion faoliyat uchun malakali kadrlarni tayyorlaydi[12].

Uzluksiz ta'lim—bu insonning butun umri davomida amalga oshiriladigan, muntazam ravishda bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim jarayonidir. Bugungi kunda mamlakatimizda uzluksiz ta'limni amalga oshirishda ko'pgina nazariy va amaliy ishlar olib borilmoqda. Nafaqat yoshlarning balki shaxs har qanday yoshda bo'lsa ham, imkoniyati cheklangan bo'lsa ham, ularning har qanday shart-sharoitda ta'lim tarbiya olishlari uchun mamlakatimizda barcha imkoniyatlar yaratilmoqda. Masalan kunduzgi ta'lim, kechki ta'lim, masofaviy ta'lim, inkluziv ta'lim turlari mavjud bo'lib, shaxs o'z imkoniyatidan kelib chiqib ta'lim turini tanlaydi. Bundan tashqari oliy ta'lim muassasalarida imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ham qo'shimcha qabul kvotalari, imtiyozlar yaratilmoqda. Ularning jamiyatdan uzilib qolmasdan, ijtimoiylashuv jarayonida o'z o'rnini topishga yordam berilmoqda.



Bugungi kundagi ta'lim sohasidagi islohotlarning maqsadi:

- shaxsiy va kasbiy rivojlanish
- mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash
- yangi texnologiyalar, uslub va kasblarni o'zlashtirish
- ijtimoiy faollik va fuqarolik ongini rivojlantirishdir.

Bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimi hududiy rivojlanishga o'zining bir qancha ta'sirini ko'rsatmoqda. Bular:

- iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlari uchun malakali kadrlar zaxirasini yaratadi;
- hududlardagi iqtisodiy tengsizlikni yumshatishga xizmat qiladi;
- ishsizlik darajasini kamaytiradi hamda aholining ijtimoiy faolligini oshiradi;
- hududlarda yangi texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Barchamizga a'yonki, oliy ta'lim muassasalarida qabul kvotalari soni va abituriyentlarning o'qishga kirish imkoniyatlari ko'paytirilmoqda. Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, barcha kadrlar mehnat faoliyati bilan shug'ullanmasada ularning ma'naviy ongini o'stirish, ijtimoiylashuvini rivojlantirish va dunyoqarashini kengaytirish ko'zda tutilgan. Xo'sh, fuqarolarning ta'lim-tarbiya olishlari uchun ko'plab islohotlar amalda o'z samarasini beryaptimi yoki ko'zlangan natijaga qanchalik erishilyapti? Afsuski, ta'lim sohasida balki kadrlar tayyorlashda hali ko'pgina muammolar mavjuddir. Hududlar misolida olib borilgan kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, kadrlar tayyorlash jarayonida bir qancha muammolar mavjuddir[11].

1. Mehnat bozori bilan nomutanosiblik. Ya'ni ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan kadrlarning aksariyat qismi real ishlab chiqarish ehtiyojlariga to'liq javob bermaydi. Bu muammoni professionalizm, akmeologiya tushunchalari bilan bevosita bog'lasak bo'ladi. Professionalizm –bu insonning o'z kasbiy faoliyatida yuqori malaka, bilim va ko'nikmalarga ega bo'lib, ularni amaliyotda samarali qo'llay olishi, kasb etikasiga amal qilishi va doimiy o'sishga intilishdir. Akmeologiya esa bu insonning shaxsiy va kasbiy rivojlanishidagi eng yuqori pog'ona "acme" (yunoncha acme-cho'qqi, eng yuqori daraja)ga erishish qonuniyatlaridir. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan talabalarning ko'pchiligi o'z ishini mukammal bilmasligi va unga mas'uliyat bilan yondashmasligi, ishni sifatli bajarish hamda natija uchun javobgarlikni his etmaslik ya'ni mas'uliyatsizlik, yangi bilimlarni egallash va malaka oshirishga urinmaslik holatlari ko'paymoqda. Ular o'z akmesini oliy ta'lim talabasi bo'lishi bilanoq to'xtatmoqdalar.

2. Moddiy texnik bazaning yetishmasligi. Hududiy ta'lim muassasalarida zamonaviy laboratoriyalar, kompyuter texnologiyalari va amaliyot bazalari kam yoki umuman yo'q.



3. Nazariyaga yo'naltirilganlik. Ko'plab o'quv dasturlari amaliyotdan ko'ra nazariyaga ko'proq e'tibor qaratadi. Vaholanki nazariya bilan amaliyot o'rtasida ancha farq bor. Nazariyani zo'r bilgan talabada amaliy ko'nikma mavjud bo'lmasa ertaga haqiqiy mehnat faoliyatida ko'plab qiyinchiliklarga duch keladi yoki umuman faoliyat yurita olmaydi.

4. Hududiy tafovut. Poytaxt va yirik shaharlar bilan chekka hududlar ta'lim sifati o'rtasida katta farq mavjud. Darhaqiqat mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy shahar va shaharga yaqin hududlarida fuqarolarning, bolalarning uzluksiz ta'lim tarbiya bilan ta'minlash uchun shart sharoit, imkoniyatlar kengroqdir. Shaxsiy qiziqish va qobiliyatlari doirasida shug'ullanishlari, ularni rivojlantirishlari mumkin. Ammo mamlakatimizning rivojlanishdan orqada qolayotgan chekka hududlari hali hamon ko'pdir. To'g'ri chekka hududlarda ham maktablar mavjud. Ammo bolaning qiziqish va qobiliyatlari doirasida ko'proq shug'ullanishi va rivojlanishi uchun imkoniyatlar kam. Chekka hududlardagi aholining iqtisodiy daromadi pastligi, malakali kadrlarning rivojlanishi past chekka hududlarga ishga bormasligi, noqulay ob-havo sharoitlari kabi bir qancha muammolar ta'lim sifatining pasayishiga olib kelishi mumkin[10].

5. Kadrlar migratsiyasi. Malakali yosh mutaxassislarning rivojlangan hududlarga yoki xorijiy davlatlarga ketishi natijasida ham hududlarda „Kadrlar tanqisligi“ yuzaga kelmoqda.

6. Bugungi kunda global muammoga aylanayotgan mobil internet, aloqa vositalariga qaramlik. Texnologik modernizatsiyaning hayotimizga kirib kelishi ko'pgina yutuqlar bilan bir qatorda muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Texnologik modernizatsiya – bu yangi texnologiyalarni joriy qilish. Maqsadi:

- taraqqiyotga erishish;
- xalq turmush darajasini yaxshilash;
- global raqobatga moslashish;
- innovatsiyalarni rivojlantirish;
- inson salohiyatini ro'yobga chiqarish.

Muammolariga to'xtaladigan bo'lsak kunlik kuzatishlarimiz natijasida bugungi kunda nafaqat yoshlar balki o'rta yosh, yoshi katta keksalar orasida ham telefon, internet tarmoqlariga tobelik, texnologik manqurtlik yuzaga kelmoqda. Ta'lim muassasalarida, ishxonalarda, ko'cha, to'y hasham-u hattoki marakalarda ham uyali aloqa vositalaridan uzoqlasholmay qoldik. Atrofdan butunlay uzilib vaqtimizni telefonda befoyda narsalarga sarflaydigan bo'ldik. Kitob, gazeta, qo'shimcha adabiyotlar, darsliklar o'qimay qo'ydik. Bu esa natijada ma'naviyatimiz va ma'daniyatimizning sustlashishiga, dunyoqarashimizning torayishiga olib



kelmoqda[9].

TAKLIFLAR:

- ta'lim tizimini mehnat bozori talablariga moslashtirish;
- o'quv muassasalari va ishlab chiqarish korxonalarini o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish va amalda qat'iy nazoratga olish;
- zamonaviy raqamli texnologiyalarni o'quv jarayoniga keng va maqsadli joriy etish, qat'iy nazoratga olish;
- chekka hududlarda ham innovatsion ta'lim markazlari tashkil etish, sonini ko'paytirish, malakali kadrlar faoliyatini ta'minlash;
- yosh va malakali mutaxassislarni chekka hududlardagi ta'lim muassasalariga ko'proq jalb etish uchun rag'batlantiruvchi imtiyozlarni ko'paytirish, shart-sharoit yaratish. Ularning amalga oshirilishini nazoratga olish.
- maktablarda, hususan oliy ta'lim muassasalarida ham o'zlashtirishi past o'quvchilarni sinfdan sinfga, kursdan kursga qoldirish tartibini amalda qat'iy amalga oshirish[8].

XULOSA

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida uzluksiz ta'lim tizimi va kadrlar tayyorlash muammolari muhim o'rin tutadi. Chunki iqtisodiyotning barqaror o'sishi, innovatsion taraqqiyot va raqobatbardoshlik darajasi, avvalo, malakali kadrlar salohiyatiga bog'liq. Uzluksiz ta'lim tizimi insonning butun umri davomida ta'lim olishini ta'minlab, jamiyatning intellektual salohiyatini oshiradi hamda mehnat bozorining ehtiyojlariga mos mutahassislar tayyorlashga xizmat qiladi. Muammolarni samarali hal etish orqali har bir hududda iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotga zamin yaratiladi, aholining bandligi va farovonligi oshadi. Umuman olganda, uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish va kadrlar tayyorlash jarayonini hududiy rivojlanish strategiyalari bilan uzviy bog'lash mamlakat taraqqiyoti uchun muhim shartdir. Buning natijasida sog'lom jamiyat, kuchli davlat va ma'naviy yetuk avlod barpo bo'ladi[7].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5410-son qarori. – Toshkent, 2018. [1.B.2-5]
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi – 2030" farmoni. – Toshkent, 2022. [2.B.45-48]
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. [3.B.22-26]



4. Abdullayeva M., Xolmatov A. Uzluksiz ta'lim tizimi va innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. [4.B.33]
5. Jo'raev M. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida kadrlar salohiyati. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. [5.B.44-45]
6. Saydulloyevich, O. Y., & Raxmonovich, I. R. Factors Of Orientation Of Students To The Teaching Profession. *JournalNX*, 317-319.
7. Saidulloyevich, Y. O. (2022). Comments and explanations on the works of the great mutaffakkir imam ghazali. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)*, 3(12), 241-244.
8. Saydulloyevich, Y. O., & Abdullaevna, M. M. (2022). Improvement of methodology of use of national ananas in teaching pedagogical sciences in the system of professional education.
9. Saydulloyevich, O. Y. (2022). The educational and moral significance of the spiritual heritage of Imam ghazali. *European Scholar Journal*, 3(6), 153-156.
10. Saydulloyevich, O. Y. (2023). Samples of the Wisdom of Imam Abu Hamid Ghazali Quoted in the Great Works. *World Bulletin of Social Sciences*, 25, 18-21.
11. Saydulloyevich, O. Y., & Erkinova, S. O. (2024). ABU HOMID G 'AZZOLIY ASARLARIDA "YOLG 'ON SO 'ZLASH VA YOLG 'ON QASAM ICHISH" YOMON ILLAT EKANLIGI HAQIDAGI QARASHLARI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(35), 505-510.
12. Saydulloyevich, O. Y. (2024). TALABALARNI MANAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA ABU HOMID G'AZZOLIY ASARLARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(35), 511-516.